

## XVIII ASR O'RTA OSIYO XONLIKLARI MADANIY ALOQALARIDA INTEGRATSIYA VA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.012>

*Jumanazarova Ilmira Shokirjon qizi*

*ilmirajumanazarova3@gmail.com*

*Osiyo Xalqaro Universiteti Tarix ta'lim yo'nalishi*

*1-bosqich Magistranti*

**Annotatsiya** Mazkur tezis XVIII asrda O'rta Osiyo mintaqasida yuz bergan siyosiy parokandalik sharoitida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi madaniy muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini yoritadi. Tadqiqotda manbalar tahliliga tayangan holda, adabiy muhitdagi "zullisonaynlik" (ikki tillilik) an'anasi, tarixnavislik maktablarining shakllanishi hamda me'morchilik va ta'lim tizimidagi o'zaro ta'sirlar o'rganilgan. Asosiy e'tibor siyosiy inqiroz davrida madaniyatning birlashtiruvchi omil sifatidagi rolga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** XVIII asr madaniyati, "Firdavs ul-iqbol", Munis, Turdi Farog'iy, madrasa ta'limi, xattotlik, Mang'itlar, Qo'ng'irotlar, Minglar

**Аннотация** В данной тезисе освещаются особенности культурного диалога между Бухарским, Хивинским и Кокандским ханствами в условиях политической раздробленности, происходившей в Центральноазиатском регионе в XVIII веке. На основе анализа источников в исследовании изучены традиции «зуллисонайн» (двуязычия) в литературной среде, формирование школ историографии, а также взаимное влияние в архитектуре и системе образования. Основное внимание уделено роли культуры как объединяющего фактора в период политического кризиса.

**Ключевые слова:** культура XVIII века, «Фирдавс ул-икбол», Мунис, Турди Фароги, медресе, каллиграфия, Мангиты, Кунграты, Минги.

**Abstract** This thesis highlights the specific characteristics of cultural dialogue between the Bukhara, Khiva, and Kokand khanates amidst the political fragmentation of the Central Asian region in the 18th century. Based on source analysis, the research examines the tradition of "zullisonayn" (bilingualism) in the literary environment, the formation of historiographical schools, and the mutual influences in architecture and the education system. The primary focus is on the role of culture as a unifying factor during the period of political crisis.

**Keywords:** 18th-century culture, "Firdavs ul-iqbol", Munis, Turdi Faroghayi, madrasa education, calligraphy, Mangyts, Qungrats, Mings.

## KIRISH

XVIII asr O'rta Osiyo tarixida murakkab "o'tish davri" sifatida tavsiflanadi. Bir tomondan, Ashtarxoniylar sulolasining chuqur inqirozi va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi kuzatilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxoro (Mang'itlar), Xiva (Qo'ng'irotlar) va Qo'qon (Minglar)da yangi sulolalarning mustahkamlanishi barqarorlikka zamin yaratdi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, garchi xonliklar o'rtasida siyosiy raqobat kuchli bo'lgan bo'lsa-da, yagona islomiy va turkiy-forsiy madaniy makon saqlanib qolgan. Madaniy aloqalar asosan ilm ahlining migratsiyasi, kitobat san'ati va tasavvufiy tariqatlar orqali amalga oshirilgan.

## ASOSIY QISM

### 5. Adabiy muhit: Ijtimoiy tanqid va mintaqaviy birlik

XVIII asr adabiy jarayoni saroy madaniyatidan tashqariga chiqib, ijtimoiy voqelikni aks ettirishi bilan ajralib turadi. R. Shamsutdinovning ta'kidlashicha, bu davrda Turdi Farog'iy ijodi xonliklararo madaniy aloqalarning yorqin namunasidir.<sup>3</sup> Turdi Farog'iy Buxoro amaldorlari bilan kelisha olmay, Xo'jand va Jizzax kabi shaharlarga safar qilgan. Uning "Tor ko'ngillik beklar" radifli g'azali nafaqat Buxoro, balki butun mintaqa elitasiga qaratilgan bo'lib, urug'-aymoqchilik nizolariga qarshi birlik g'oyasini ilgari surgan. Shuningdek, Boborahim Mashrab ijodi ham chegaralararo xarakterga ega bo'lib, uning asarlari Namangan, Buxoro, Balx va hatto Qashqarda ham mashhur bo'lgan. Bu shoirlar siyosiy bo'linishlarga qaramay, ma'naviy makonning yaxlitligini ta'minlaganlar. XVIII asrda Buxoro amirligi hududida ham fan, adabiyot va madaniyatga munosib hissa qo'shgan allomalar o'tgan. Ulardan biri, Abdurahmon Tole' XVIII asrda yashagan buxorolik munajjim va tarixchi olimdir. U Abulfayzxon davri (1711–1747)da yashab ko'pgina tarixiy voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va «Tarixi Abulfayzxon» asarini yozgan. Bu asar XVIII asrning birinchi yarmidagi O'rta Osiyoning siyosiy ahvoliga oid qimmatli manba bo'lib, Ashtarxoniylar davlatining o'zaro urushlari kuchayib ketgan va Eron shohi Nodirshohning bosqinchilik yurishi natijasida inqirozga yuz tutgan davri haqida hikoya qiladi. Asarda bundan tashqari Rajabxon boshchiligida mustaqil Samarqand bekligining tashkil topishi, Zarafshon vohasi va Shahrisabz vodiysida bo'lib o'tgan g'alayon hamda qo'zg'olonlar va ularning sabablari haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. O'zbek milliy madaniyati markazlaridan yana biri bu Qo'qon xonligi edi. Bu yerda XVIII asrda ilm-ma'rifat olamida nomi dunyoga mashhur bo'lgan ulug' mutafakkir va shoirlar yetishib chiqadi. Shoir Mahmud (XVIII asr oxiri – 1844).U o'z davrining yirik satirik shoiri edi. Ziyoli oilasidan bo'lgan Mahmudning otasi Mulla Shermuhammad madrasada mudarrislik qilgan, Akmal taxallusi bilan she'rlar yozib, ijodiy ish bilan ham shug'ullangan. Mahmudning asli ismi Mahmuddir. Mahmud shoirlik taxallusidir. U otasi dars beradigan Mir madrasasida tahsil

<sup>3</sup>Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari). 2-kitob. – Toshkent: Sharq, 2010

ko'rdi. O'z zamonasining yetuk namoyandasi bo'lib yetishdi. Mahmud otasi Akmalni o'rab olgan muhit ta'sirida juda yoshlikdan badiiy ijodga beriladi. Undagi qobiliyatni sezgan saroy ahllari Mahmurni saroy shoiriga aylantirishga harakat qiladilar. Mahmur saroyda askar bo'lib xizmat qilish bilan birga ijodiy faoliyatni ham davom ettiradi. Mahmur satirik hajviy she'rlarda ijod etgan. Ayniqsa, «Hapalak» she'ri shoir ijodining yuksak pog'onasi bo'lib, unga katta obro' va e'tibor keltiradi. Bu she'rda shoir Qo'qon xoni Umarxonga murojaat qilib xalqning og'ir iqtisodiy turmush sharoitini yengillatish, ularni ezib qo'ygan soliq va har xil to'lovlardan ozod qilishni iltimos qiladi. «Hapalak» o'zida bir qishloq manzarasini aks ettirsada, haqiqatda butun Qo'qon xonligidagi aksariyat xalqning og'ir iqtisodiy turmush sharoitini, kambag'al dehqonlar xonadonining vayrona bo'lish manzarasini badiiy bo'yoqlarda ifodalagan.

## 2. Xiva tarixnavislik maktabi va tarjima san'ati

XVIII asr oxiriga kelib, Xiva xonligida fundamental tarixnavislik maktabi shakllandi. Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol” (Baxt bog'i) asari nafaqat Xiva xonligi, balki qo'shni hududlar (Buxoro, Qozoq juzlari, Turkman qabilalari) bilan bo'lgan madaniy va siyosiy aloqalarni o'rganishda birlamchi manba hisoblanadi. Munis Xorazmiyning xon buyrug'I bilan Mirxondning “Ravzat us-safo” asarini tarjima qilishi, Xivada tarjima maktabining yuksak darajada rivojlanganligini va forsiy madaniy merosning o'zbek tiliga faol o'zlashtirilganligini ko'rsatadi. Bu jarayon mintaqada turkiy tilning ilmiy-adabiy til sifatidagi mavqeyi oshib borganidan dalolat beradi.

## 3. Ta'lim tizimi va me'morchilikdagi hamkorlik

B. Eshov va H. Boboyevlarning tadqiqotlariga ko'ra, XVIII asrda Buxoro madrasalari mintaqaviy “universitet” vazifasini o'tagan.<sup>4</sup> Qo'qon va Xivadan ko'plab tolibi ilmlar fiqh, mantiq va ilohiyotni o'rganish uchun Buxoroga kelganlar. Xususan, Qo'qon xoni Narbo'tabiy (1763–1798) davrida Buxoro bilan ilmiy aloqalar kuchaygan. Narbo'tabiy Qo'qonda madrasalar qurdirib, Buxoroda tahsil ko'rgan ulamolarni dars berishga taklif etgan. Bu esa Farg'ona vodiysida ilm-fan rivojiga juda katta hissa qo'shgan. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida xalq ta'limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo'lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qorixonalar mavjud edi. Madrasalar musulmon oliy o'quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o'rtasida xonzoda va zodagonlarning bolalarini o'qitish uchun maxsus maktab bor edi. Masalan, “Ansob as-solatin va tavorixi al-havoqin” nomli asarda “Musulmonqul mingboshining buyrug'I bilan yosh Xudoyorxon va qipchoqlar bolalarini o'qitish uchun o'rdada maktab qurilib, unga maktabdor etib Mullo Sodiq tayinlangan” deyiladi. Odatda maktablarda asosan o'qish va yozish, arifmetika va adabiyot o'qitilar edi.

<sup>4</sup>Eshov B. O'zbekiston tarixi, 1-jild, Toshkent-2013



Qorixonalarda esa asosan ko'zi ojizlar o'qib, Qur'on, doston va she'r-u g'azallar yodlar edilar. Maktablar qizlar va o'g'il bolalar uchun alohida bo'lgan.

Bu davrda qurilgan ulkan va go'zal me'morchilik yodgorliklari hozirgi kunda ham har qanday kishining diqqat-e'tiborini o'ziga tortadi. Buxoroda yaxlit yodgorlik tariqasida rejalaniib amalga oshirilgan ajoyib me'morchilik ansambli – Registonning kun botishi tomonida 1712-yilda qurilgan Bolohovuz masjidi o'sha davrning eng yirik inshooti bo'lgan. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligida ham xalq me'morchiligi rivojlanadi. Xonlikning markazi Qo'qon shahrida, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlarida masjid, madrasalar, kutubxonalar quriladi. Binolarni bezatish uchun gul namunalari keng qo'llanilib, shiftlarga bo'yoqli naqshlar chizish, naqshlarni ganchga o'yib solish odat bo'ladi.

#### 6. Kitobat san'ati va moddiy madaniyat

UNESCOning "O'rta Osiyo sivilizatsiyalari tarixi" (V jild) ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, XVIII asrda miniatyura san'atida biroz turg'unlik kuzatilsa-da, xattotlik va muqovasozlik rivojlangan. Qo'lyozma kitoblar karvon yo'llari orqali xonliklar o'rtasida aylanib yurgan. Samarqand qog'ozining sifati pasaygan bo'lsa-da, Qo'qon va Xivada mahalliy qog'oz ishlab chiqarish va kitob ko'chirish markazlari faollashgan.

#### XULOSA

XVIII asr O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi madaniy aloqalar siyosiy tarqoqlik fonida paradoksal ravishda rivojlanib bordi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki: Siyosiy jihatdan xonliklar bir-biridan uzoqlashgan bo'lsa-da, madaniy jihatdan (adabiyot, din, ta'lim) integratsiya saqlanib qoldi. Adabiyotda saroy maddohligidan ko'ra, ijtimoiy illatlarni fosh etuvchi realistik (Farog'iy, Maxmur) yo'nalish kuchaydi va bumday asarlar xalqchil ohanglar orqali chegaralarni oson kesib o'tdi. Buxoro madrasalari va Xiva tarjima maktabi mintaqaviy madaniy markazlar sifatida qo'shni hududlar aholisi uchun ham xizmat qildi. XVIII asr madaniy jarayonlari keyingi XIX asrdagi "O'zbek uyg'onish davri" (Jadidchilik arafasi) uchun mustahkam poydevor vazifasini o'tagan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari). 2-kitob. – Toshkent: Sharq, 2010
2. Munis, Ogahiy. "Firdavs ul-iqbol", Toshkent-2010
3. Eshov B. O'zbekiston tarixi, 1-jild, Toshkent-2013
4. "History of Civilizations of Central Asia", 5-jild, YUNESKO-2003
5. Boboyev H. va boshq. O'zbek davlatchiligi tarixi. 2-kitob, Toshkent-2009